



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR-MAY


NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1-iyun holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1265 tani tashkil etdi.


Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 372 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 29,4 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2024- yil 1-iyun holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Hududlar kesimida




Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 233 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 18,4 %), Qiziltepa tumanida – 190 ta (15,0 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-may oylari uchun)

2024- yilning yanvar-may oylarida, Navoiy viloyatida jami 3 248,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 130,3 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


2024- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 79,5 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 143,4 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 16,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 3,9 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 88,7 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-may oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 80,8 % i yoki 2 625,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 242,1 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 47,3 % ni tashkil etdi.

47,3 %

1 242,1
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 940,7 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

35,8 %

940,7
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi 442,7 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.

16,9 %

442,7
mlrd. so‘m



2024- yilning yanvar-may oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Tomdi tumani (937,2 mlrd. so'm), Navoiy shahri (573,5 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (458,1 mlrd. so'm) va Zarafshon shahri 358,3 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	3 248,6	130,3	2 625,5
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	573,5	100,7	485,7
Zarafshon	358,3	100,6	294,0
G'ozg'on	2,1	101,1	1,8
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	45,1	100,5	34,1
Qiziltepa	458,1	90,3	404,3
Navbahor	132,4	71,0	116,0
Karmana	273,5	100,7	181,2
Nurota	234,8	100,8	208,4
Tomdi	937,2	11,4 m	716,2
Uchquduq	55,0	117,4	34,1
Xatirchi	178,6	87,3	149,7




Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

2024- yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **2 581,5 mlrd. so'm.**




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 43,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 32,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 18,0 % punktga kamayib, 35,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % punktga kamayib, 20,9 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun:


Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 86,2 %) Navoiy shahri (85,3 %) va Qiziltepa tumani (81,0 %) da kuzatildi.



Zarafshon shahri
86,2 %




Navoiy shahri
85,3 %



Qiziltepa tumani
81,0 %

2024- yilning yanvar-may oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish- **540,3** mlrd. so'm.




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 41,0 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 59,0 % (25,8 % punktga kamaydi).

2024- yilning yanvar-may oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 45,5 % i), Navbahor tumani (23,9 %) va Nurota tumani (20,0 %) da kuzatildi.



45,5 %
G'ozg'on shahar




23,9 %
Navbahor tumani



20,0 %
Nurota tumani

2024- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- **126,8 mlrd. so'm.**



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga kamayib va 0,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga esa 100 % hissa to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun:

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Gʻozgʻon shahrida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 10,6 % i), Tomdi tumani (6,3 %) va Uchquduq tumani (4,8 %) kuzatildi.



10,6 %
Gʻozgʻon shahri



6,3 %
Tomdi tumani



4,8 %
Uchquduq tumani


2024- yilning yanvar-may oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
471,4 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
87,7 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
79,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 358,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 471,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 30,1 % punktga koʻpayib, 41,8 % ni tashkil etdi.


Xoʻjalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. soʻmda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,9 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 20,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 87,7 % ni tashkil etgan holda 1 359,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2024- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,3 % ni yoki 530,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 79,0 % ni tashkil etdi. Shundan 274,8 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 72,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 167,9 mlrd. soʻmni va 81,5 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 87,7 mlrd. soʻmni va 103,4 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-may oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 198,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 049,7mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,1 % va 93,9 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun:



Nodavlat mulkchilikidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush G'ozg'on shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 100 % i), Xatirchi tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 91,2 % i) va Navbahor tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 70,4 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. (79) 223-54-73